



## SUG'URTANI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI BOSHQARISH VOSITASI SIFATIDA

**Rasulov Sodiq Sa'dullayevich**

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi*

*ORCID: 0009-0008-8676-7187*

*[akash7509@rambler.ru](mailto:akash7509@rambler.ru)*

**Annotatsiya.** Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositalari orasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini sug'urtalash muhim o'rin tutadi, shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada sug'urtalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, davlat siyosati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, sug'urta, sug'urtalash, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, xatarlar.

## ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА СТРАХОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ УПРАВЛЕНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМИ РИСКАМИ

**Расулов Содик Саъдуллаевич**

*Министерство высшего образования, науки и инноваций*

**Аннотация.** Среди инструментов государственной поддержки сельского хозяйства важное место занимает страхование сельскохозяйственных товаропроизводителей, исходя из этого, в данной статье рассматриваются вопросы государственной поддержки страхования.

**Ключевые слова:** национальная экономика, государственная политика, государственная поддержка, страхование, страхователь, страховщик, риски.

## STATE SUPPORT OF INSURANCE AS A TOOL FOR AGRICULTURAL RISK MANAGEMENT

**Rasulov Sodik Sadullaevich**

*Ministry of Higher Education, Science and Innovation*

**Annotation.** Insurance of agricultural producers occupies an important place among the instruments of state support for agriculture, based on this, this article discusses the issues of state support for insurance.

**Keywords:** national economy, state policy, state support, insurance, policyholder, insurer, risks.

## **Kirish.**

So'nggi yillarda bir qator salbiy omillarning faol ta'siri tufayli qishloq xo'jaligi sektorida faoliyat yuritish bilan bog'liq xatarlar sezilarli darajada oshib bormoqda. Turli xil geosiyosiy va iqtisodiy jarayonlarning ta'siri bois savdo bozorlariga kirib borish, moliyalashtirish manbalaridan erkin foydalanish sezilarli darajada murakkablashmoqda, bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi tashkilotlarining investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligini pasaytirmoqda. Shu bilan birga, sohani rivojlantirish borasidagi xatarlar iqlim o'zgarishlari bilan ham bog'liqdir. Shunday qilib, tabiiy ofatlarning ta'siri ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydigan (hudud uchun xos bo'lmagan) va murakkab (xavf guruhlarning kombinatsiyasi) bo'lib, bu o'z navbatida ekinlarning hosildorligiga ta'sir qiladi va hayvonlar sonining kamayishiga olib keladi. Natijada moliyaviy barqarorlik va ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi.

Hozirgi vaziyatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xavf-xatarlarini sug'urtalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ishlab chiqaruvchilarning yo'qotishlarini qoplashga imkon beradigan eng muhim moliyaviy vositadir. Sug'urta dasturlarini moliyalashtirishga hududlarning ehtiyojlarining amalda kengayishi, davlatning ushbu subsidiya sohasidagi xarajatlarni maqbullashtirish istagi bilan bir qatorda, sug'urta munosabatlarining barcha ishtirokchilari manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ajratilgan byudjet mablag'larini rejalashtirish va taqsimlash, monitoring va baholash samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan mavjud davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

## **Adabiyotlar sharhi.**

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xususan samarali sug'urta tizimini joriy qilish masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va bunday izlanishlar bugungi kunda ham davom ettirib kelinmoqda. Xususan, tadqiqotchi Solieva o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligini sug'urtalash borasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahliliga alohida e'tibor qaratadi (Soliyeva, 2022).

Tadqiqotchi Nurullaev qishloq xo'jaligidagi institutsional o'zgarishlar sharoitida davlat ko'magi asosida risklarni sug'urtalash metodologiyasiga yangicha yondashuvning zarurligi, asosiy yo'nalishlarini tadqiq etgani holda, qishloq xo'jaligidagi risklarni boshqarishda sug'urta tizimining ustunliklari hamda o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslashga harakat qilgan (Nurullayev, 2019).

Iqlim o'zgarishlarini yumshatishda sug'urtaning o'rni masalalari mahalliy mutaxassislardan Yadgarovning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Xususan, u agrosug'urta ko'magida iqlim o'zgarishlarini yumshatishning amaliy jihatlariga to'xtalib o'tadi (Yadgarov, 2021).

Mahalliy mutaxassislardan yana biri G'afforov qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalash sohasida risk menejmentini rivojlantirish yo'llari xorijiy mamlakatlar tajribalari misolida tahlil qiladi va qishloq xo'jaligidagi risklarni boshqarishda sug'urta tizimining ustunliklari hamda o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi (G'afforov, 2022).

Shu bilan bir qatorda, tadqiqotchi Kalenov qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyati bilan bog'liq risklar va ularni klassifikatsiyalash hamda davlat-xususiy sherikchiligi hamda sug'urta mukofotlarining bir qismini o'zaro sug'urtalash jamiyatlari tashkil etish orqali ushbu jamiyatlarga davlat tomonidan to'lab berish bilan qo'llab-quvvatlash orqali sug'urta xizmatlari bilan ta'minlashning samaradorligiga erishish masalalarini o'rgangan (Kalenov, 2021).


## **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur ilmiy maqolaning uslubiy asosini qishloq xo'jaligida xatarlarni sug'urtalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchi unsurlar majmui sifatida ochib berishga imkon beruvchi dialektik prinsiplar to'plami tashkil

qiladi. Bundan tashqari, ilmiy maqolani yozish va tahrirlash jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez kabi ilmiy bilishning umumiy usullaridan keng foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qishloq xo'jaligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng muhim sohaslaridan biri hisoblanadi, chunonchi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iste'mol bozorlarining to'yinishi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi sohasining umumiy holatiga bog'liqdir. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi sohasining o'rni yetarlicha yuqori bo'lgani holda, mamlakat yalpi ichki mahsulotining yillik o'sish sur'atlarini ta'minlashda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining hissasi 0,8-1,0 foizni tashkil qiladi. 2023-yil yakunlari bo'yicha mamlakat YaIM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 24,9 foizni tashkil etganligining o'ziyoq, qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotida qay darajada muhim o'rin tutishidan darak beradi (1-rasm).



1-rasm. 2023-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM tarkibi, %

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 1 foizga o'sishi iqtisodiyotning o'zaro bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarida 1-2 foiz atrofida o'sishiga ta'sir ko'rsatadi, bir so'z bilan aytganda, multiplikativ samara tufayli qishloq xo'jaligidagi ijobiy siljishlar butun bir mamlakat iqtisodiyotida o'z aksini topadi (Abduvoxidov va boshq., 2022).

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi nafaqat aholini oziq-ovqat, sanoatni xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar bilan ta'min etuvchi resurslar manbai, balki sanoat mahsulotlariga (qishloq xo'jaligi texnikasi, o'g'itlar) barqaror talabni shakllantiruvchi iste'molchi hamdir (Nurmuxammadova, Abduvoxidov, 2021).

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligiga davlat tomonidan ko'mak ko'rsatish doirasida "davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash" kategoriyasining iqtisodiy mazmunini ochib berish borasida turlicha yondashuvlar farqlanadi (1-jadval).

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning mohiyatini tushunish borasidagi yondashuvlarning farqlanishiga qaramay, barcha mualliflar mazkur qo'llab-quvvatlash choralarning funksional yo'nalishi borasida yakdil fikrni ilgari suradilar. Mabodo biz mahalliy olimlarning qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasidagi qarashlarini umumlashtirar ekanmiz, u holda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni sanoat ishlab chiqarishini xomashyo bilan ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun qishloq hududlarining (kadr, ishlab chiqarish, moliyaviy) salohiyatini faollashtirishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tUSDagi manzilli chora-tadbirlar majmui sifatida tavsiflashimiz mumkin (Maxmudov, 2023)

**“Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash” kategoriyasining mazmunini  
ochib berishdagi turlicha yondashuvlar**

Yondashuv	Yondashuv mazmuni
Me'yoriy-huquqiy	qishloq xo'jaligi va qishloq hududlarini rivojlantirish borasidagi munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro aloqaga kirish tartibi va javobgarlik chegaralarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmui
Ijtimoiy	qishloq hududlarining ijtimoiy barqarorligini ta'minlash maqsadida ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar majmui
Iqtisodiy	qishloq xo'jaligi tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida foydalaniluvchi turli xil moliyaviy vositalar, imtiyozli va davlat tomonidan bepul moliyalashtirish vositalari majmui

*Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.*

Qishloq xo'jaligining strategik ahamiyatga ega ekanligi bois, dunyoning barcha mamlakatlarida mazkur soha davlat tomonidan yetarlicha qo'llab-quvvatlanadi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurati bir qator sabablarga bog'liq bo'lib, ularning asosiylari: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xususiyatlari; faoliyatning aniq mavsumiyliigi; murakkab xavflarning yuqori va yomon nazorat qilinadigan darajasi; sanoat bilan tovar ayriboshlashda ekvivalentlikning yo'qligi kabilar hisoblanadi (Abduvoxidov va boshq., 2022).

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash davlat tomonidan tartibga solishning ajralmas qismi bo'lib, u muayyan shakl va usullar orqali amalga oshiriladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ajratilgan tijorat kreditlarining foiz stavkalarini subsidiyalash; qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ining strategik yo'nalishlari va ehtiyojlariga mos kreditlash va sug'urtalash mexanizmini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilganligi ahamiyatlidir.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida sug'urta maydonga chiqadi, sug'urta munosabatlarini amalga oshirish doirasida iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektorining asosiy xatarlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatiladi, bu esa yakuniy qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining zararlarini (mahsulot yo'qotilishi tufayli yo'qotishlar) ni qoplash orqali ularning barqarorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bankrotlik xavfini kamaytiradi, ularga joriy qarz majburiyat-larini to'lash uchun yetarli darajada to'lov qobiliyatini saqlashga imkon beradi va moliyaviy natijalarning barqarorligini ta'minlaydi (Soliyeva, 2022).

Ayrim mualliflarning ilmiy ishlarida davlat qo'llab-quvvatlashi asosida sug'urtalash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mavjud xatarlarni kamaytirish va iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim vositalaridan biri ekanligi ta'kidlanadi (Nurullayev, 2019).

Kalenovning fikricha, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurati qishloq xo'jaligi xatarlarining nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining, balki mahsulotning qiymat zanjiriga jalb qilingan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlashiga ta'sir qilishi bilan bog'liq (Kalenov, 2021).

Bir qator xorijiy olimlar o'z tadqiqotlarida davlat ko'magi bilan qishloq xo'jaligini sug'urtalash ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, faoliyat bilan bog'liq xatarlar darajasini pasaytirish, moliyaviy barqarorlikni oshirish va qishloq xo'jaligi ishlab

chiqaruvchilarining daromadlari barqarorligini saqlashga yordam berishini ta'kidlaydilar (Hazell, 1992).

Jahon iqtisodiy forumining global xatarlar bo'yicha yillik hisobotida iqlim o'zgarishi butun sayyoramiz uchun halokatli xatar ekanligi qayd etiladi (McLennan M. et al. , 2022). Xorijiy tadqiqotchilar iqlim o'zgarishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi va sug'urta iqlim o'zgarishi ta'siriga qarshi kurashishning eng muhim vositasi ekanligini ta'kidlaydilar (Mendelsohn, Dinar, 2009).

Bir qator olimlar o'z tadqiqotlarida iqlim o'zgarishi ekstremal ob-havo hodisalarining intensivligi va chastotasining oshishiga, havo haroratining o'zgarishi va kuchli yog'ingarchiliklarga olib kelishini ta'kidlashadi. Havo haroratining keskin ko'tarilishi qishloq xo'jaligi tarmoqlarining mahsuldorligiga salbiy ta'sir qiladi va ishlab chiqarish bilan bog'liq xatarlar xavfini oshiradi. Ularning fikriga ko'ra, fermerlarning asosiy xatarlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi va narxlar darajasi bilan bog'liq (Elmonov, 2022).

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida xatarlarni sug'urtalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ikki asosiy yo'nalishda amalga oshirilmoqda:

- qishloq xo'jaligi xatarlarini klassik sug'urtalash;

- tabiiy ofatlar natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetkazilgan zararni byudjetdan to'g'ridan-to'g'ri qoplash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.07.2024 yildagi 373-son "Qishloq xo'jaligi subyektlariga qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda sug'urta mukofoti uchun to'lov xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi subyektlariga qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda sug'urta mukofoti uchun to'lov xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risida Nizomda" qishloq xo'jaligi subyektlariga qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda sug'urta mukofoti uchun to'lov xarajatlarining 50 foizini, biroq sug'urta summasining 4 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash tartibi belgilab berilgan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini amalga oshirishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning o'ziga xos jihatlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda mazkur jihatlarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Bugungi kunda davlat sug'urta munosabatlarining to'laqonli ishtirokchisidir. Qishloq xo'jaligida sug'urtani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning umumiy maqsadi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining mulkiy manfaatlarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun xavfli hodisalar yuzaga kelishi bilan bog'liq zararlardan himoya qilishdir. Maqsadlarni belgilashda qishloq xo'jaligini sug'urtalashning barcha ishtirokchilari nuqtai nazaridan kelib chiqib ish ko'rilishi lozim.

Qishloq hududlarini kompleks rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, bandlikni rag'batlantirish, qishloq aholisining turmush sifati va yashash sharoitlarini yaxshilash qishloq joylarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ipoteka kreditlashni rag'batlantirish va qishloq aholisini ish bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari shaklida amalga oshiriladi.

Har qanday tijorat tuzilmasi singari sug'urta kompaniyasi uchun asosiy maqsad qishloq xo'jaligi xatarlarini sug'urtalash operatsiyalarining yuqori daromadlilikini ta'minlashdir. Biroq bugungi kunda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy savodxonligi yetishmasligi, shu bilan bir qatorda moliyaviy imkoniyatlarining cheklanganligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sug'urtalashda davlatning faol ishtirokini talab qiladi.

Qishloq xo'jaligini sug'urtalashda sug'urta hodisalarining yuzaga kelishining oldindan aytib bo'lmaydigan tabiati va ko'lamini nazarda tutuvchi qishloq xo'jaligini sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, sug'urtalovchi sug'urta to'lovlarini kamaytirish orqali xarajatlarni kamaytirish, sug'urta portfelining risk darajasini maqbullashtirish va to'lov qobiliyatining yuqori darajasini saqlab qolishga intiladi.



Qishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilot (sug'urtalanuvchi) ning asosiy maqsadi iqtisodiy faoliyatning barqaror daromadlilikini ta'minlash hisoblanadi. Sug'urtalashda ishtirok etish orqali ishlab chiqaruvchi o'z biznesini himoya qilishga va salbiy voqea sodir bo'lgan taqdirda ham moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga harakat qiladi. Qishloq xo'jaligi tashkiloti uchun olingan zararni to'liq qoplash maqsadida sug'urta to'lovini maksimal darajada oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlashning kompleks tizimining amal qilishi milliy qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorining bugungi kunda amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Bugungi kunga qadar qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy xavflarni qayta sug'urtalashning samarali tizimi yaratilmagan va tijorat sug'urtasi doirasida tabiiy favqulodda vaziyatlar natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining va o'z navbatida sug'urta tashkilot-larining katta miqdordagi zararlarini qoplash uchun yetarli hajmda qayta sug'urta qilish imkoniyatlari shakllanmagan.

Shunday qilib, O'zbekiston da qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi birinchi navbatda tabiiy-iqlim sharoiti bilan bog'liq yuqori xatarlar, shuningdek, qishloq xo'jalik hayvonlarining xavfli kasalliklari tarqalish xavfi bilan bog'liq. Davlatning qo'llab-quvvatlashi yordamida qishloq xo'jaligini sug'urtalashning samarali tizimini yaratish davlat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu o'z navbatida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:**

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 yildagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni, <https://lex.uz/docs/4567334#4567556>

Hazell P. B. R. (1992) *The appropriate role of agricultural insurance in developing countries* //Journal of International Development. –T. 4. – №. 6. – С. 567-581.

McLennan M. et al. (2022) *The Global Risks Report 2022 17th edition.* – Cologne, Switzerland: World Economic Forum.

Mendelsohn R. O., Dinar A. (2009) *Climate change and agriculture: an economic analysis of global impacts, adaptation and distributional effects.* – Edward Elgar Publishing.

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.07.2024 yildagi 373-son "Qishloq xo'jaligi sub'yektlariga qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda sug'urta mukofoti uchun to'lov xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Qarori, <https://lex.uz/docs/6993258>.

Абдувоҳидов А. и др. (2022) Қишлоқ хўжалигида иқтисодий ўсиш сифатини аниқлаш ва унинг кўрсаткичлари таҳлили //Iqtisodiyot va ta'lim.– Т. 23. – №. 4. – С. 16-31.

Ғаффоров, А. (2022). Қишлоқ хўжалиги таваккалчиликларини суғурталашда рискларни бошқариш: Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(5), 300–305.

Каленов К. (2021) *Аграр соҳада суғурта хизматларини йулга қуйишнинг жаҳон тажрибасидан фойдаланиш* //Iqtisodiyot va ta'lim. – №. 4. – С. 343-347.

Махмудов А. (2023) Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш муаммолари //Iqtisodiyot va ta'lim. – Т. 24. – №. 1. – С. 528-537.

Нурмухаммидова М. Х. и др. (2021) *Иқтисодий ислохотларнинг ҳозирги босқичида қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш асослари* //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – Т. 1. – №. 6. – С. 401-417.

Нуруллаев А. (2019) *Қишлоқ хўжалигидаги институционал ўзгаришлар шароитида давлат кўмаги асосида рискларни суғурталаш методологиясига янгича ёндашув хусусида* //Экономика и инновационные технологии. – №. 5. – С. 117-126.

Солиева Н. (2022) Қишлоқ хўжалигида суғурталаш тизимини ривожлантириш йўллари //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. –Т. 2. – №. 7. – С. 4-11.

Солиева Н. (2022) Қишлоқ хўжалигини суғурталаш тизимини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш йўллари: //Iqtisodiyot va ta'lim. – Т. 23. – №. 5. – С. 411-417.

Элмонов Б. (2022) Иқлим ўзгаришининг барқарор иқтисодий ривожланишга таъсири: Ўрта Осиё мисолида //Iqtisodiyot va ta'lim. – Т. 23. – №. 6. – С. 58-63.

Ядгаров А. (2021) Агросуғурта-қишлоқ хўжалигида иқлим ўзгаришини юмшатувчи молиявий восита сифатида.